



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRINING BUYRUG'I

Oila va xotin-qizlar davlat qo'mitasining boshlang'ich tashkilotlari faoliyatini yo'lga qo'yish to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 19-mayda vazirlik va idoralar hamda ular tizimidagi tashkilotlar tomonidan aholiga xizmat ko'rsatish samaradorligini oshirish bo'yicha kelgusidagi vazifalar to'g'risida o'tkazilgan 109-sonli yig'ilish bayonining 10-bandi ijrosini ta'minlash hamda xalq ta'limi tizimidagi xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash maqsadida **buyuraman**:

1. Xalq ta'limi tizimidagi xotin-qizlarni jamiyatda siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy sohalaridagi vazifalarni hal qilishdagi faolligini kuchaytirish, xotin-qizlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash maqsadida Oila va xotin-qizlar davlat qo'mitasining boshlang'ich tashkiloti (keyingi o'rnlarda - boshlang'ich tashkilot) faoliyati yo'lga qo'yilsin.

2. Quyidagilar:

xotin-qizlar o'rtasida ma'naviy-ma'rifiy ishlarni amalga oshirish, milliy va madaniy qadriyatlarimiz, an'analarimiz asosida qizlarni har tomonlama yetuk inson qilib tarbiyalashda tadbirlar, uchrashuvlar, seminar, konferensiylar o'tkazish;

xotin-qizlarning huquqlarini himoya qilish, ma'naviy intellektual va kasbiy salohiyatini, huquqiy savodxonligini, huquqiy madaniyatini oshirib borish;

o'rnatilgan tartib bilan ish haqiga qo'shimcha ustama belgilash orqali moddiy rag'batlantirib borish belgilansin.

3. Qoraqalpog'iston Respublikasi xalq ta'limi vaziri, Toshkent shahar xalq ta'limi bosh boshqarmasi va viloyatlar xalq ta'limi boshqarmalari boshliqlari, vazirlik tasarrufidagi tashkilotlar va ta'lim muassasalar direktorlari boshlang'ich tashkilot faoliyatini yo'lga qo'yish va tashkilot nizomiga muvofiq biriktirilgan vazifalarni amalgaga oshirish choralarini ko'rsin.

4. Xalq ta'limi vazirligida boshlang'ich tashkilot raisi etib Ijro etuvchi apparat bosh mutaxassisini D.Xatamova tayinlansin.

5. Boshlang'ich tashkilotning faoliyati bilan bog'liq hujjatlarni rasmiylashtirishda

Ta'lim muassasalarida ma'naviy-ma'rifiy faoliyatni muvofiqlashtirish boshqarmasi ko'maklashsin.

6. Mazkur buyruqning ijrosini nazorat qilish vazir o'ribbosari V.Rajapov zimmasiga yuklatilsin.

Vazir

B.Saidov



Toshkent sh.,
2022-yil "31" - may,
174 - son